ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026/ № 1. 1-2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 12.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Yo'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 12.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 12.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

PARDAYEV AZAMAT BAXRONOVICH
So‘zning lingvistik tabiati xususida 7

HAMIDOVA MUHAYYOXON OBIDOVNA
Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini 11

ABDURAXMONOV XUDOYNAZAR ABDIRAYIMOVICH
Mavhum otlarning kognitiv-semantik va diskursiv xususiyatlari:
zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tahlil 16

ASADOV TO‘LQIN HAMROYEVICH
Predmet-belgi ma’noli ayrim morfologik oraliq so‘zlarning qiyosiy-tarixiy tavsifi 22

G‘AYBULLAYEVA DILDORA FAYZULLA QIZI
O‘zbek tilidagi insonning fizik xususiyatlarini
ifodalovchi frazeonimlarning semantik-stilistik tahlili 26

NASHIROVA SHAXNOZA BURIYEVNA
Ikki tilli lug‘atlar: nazariy asoslar va tarixiy yondashuv 29

NORKUZIYEVA DILDORA
Til tizimiga kiritilgan zoonim va zoomorfizmlarning
qiyosiy tipologik tadqiqotlardagi tahlili 33

ERGASHEVA DILRABO ALLANAZAROVNA
Epitet – badiiy matnni obrazli ifodalovchi vosita 38

AVEZOVA GULNOZA KAMILOVNA
Komil Avazning nasriy asarlarida dialektizmlarning qo‘llanilishi
(«Sozanda» romani misolida) 41

AMONOVA ZAMIRA
Nemis va o‘zbek tillarida destruksiyani ifodalovchi
fe’llarning metaforik qo‘llanilishi 44

NE’MATOVA O‘G‘ILOY AKRAM QIZI
«Maxzan ul-asror” dostonining badiiy-tasviriy
vositalari va uslubiy xususiyatlari 53

TUROBOVA MATLUBA RAXMATULLAYEVNA
Sun’iy intellekt tizimlarida o‘zbek tili leksikografik bazasini
shakllantirishning innovatsion usullari 56

KO‘CHIYEVA SHABNAM ISOMIDDIN QIZI
Tilshunoslikda disleksiya va disgrafiyaning
neyrolingvistik va psixolingvistik tadqiqi masalalari 60

OZADOVA MA’MURA ERGASHEVNA
Xorazm xalq qo‘shiqlari tilidagi manglay leksemasining lingvokulturologik va
lingvopoetik xususiyatlariga doir 63

МУНДАРИЖА

ALLAQULOVA SADOQAT AXMAT QIZI
O‘zbek tilining umumiy izohli lug‘atlarida etnoleksemalar berilishining qiyosiy tahlili 65

O‘RAZOV ALISHER DONIYOROVICH
O‘zbek tilida leksemaning semantik tabiati..... 68

JUMAYEVA KUMUSH TURSUNALIYEVNA
O‘zbek tili o‘zlashma qatlam somatik lesemalarida leksik tipologiya..... 72

MURODQULOVA IRODA SHAROFIDDINOVNA
Semurg‘ obrazining lingvomadaniy talqini (o‘zbek xalq dostonlari misolida)..... 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

АСРОРОВ АКБАР, БОЛТАЕВ МАРДОН
Шоҳона сатрлар соҳиби – Султон Убайдий..... 80

SAMATOV SHOMAT, XO‘JANOVA OZODA
Buyuk shoir xotirasiga munosib haykal 85

ABDULLAYEV RAMAZON
Composing tatabbu‘ poetry in the time of Mu‘izzī and after him..... 88

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA,
EGENMURADOV ARZUV ANNAMIRATOVICH
Magtymguly Pyragynyň döredijilik äleminde möwlana Lutfynyň edebi poetik täsiri 93

ABDUXALIQOVA HILOLA G‘ULOM QIZI
XVIII–XIX asrlar o‘zbek dostonlarida tasavvufiy talqinlar 97

PAYG‘AMOVA SHIRIN JAKBARALI QIZI
Analitik folklorizmlarning poetik xususiyatlari 100

JAVLIYEV POYONBEK SHAVKAT O‘G‘LI
Usmon Azim nasrida lirik ohang..... 103

FERUZA RASULOVNA RASHIDOVA
The depiction of internal monologue as a form of artistic psychologism
in the novels of the Bronte sisters 106

TA’LIM

MASHARIPOVA NARGIZA OTAXONOVNA,
BAXRAMOVA MALIKA MUZAFFAROVNA
Sun’iy intellektli o‘yin yordamida inglizcha so‘z boyligini oshirish
(o‘zbek madaniyati asosida)..... 109

Resume. In article goes speech about disputes round word. Are analyzed view the representatives of traditional linguists and system-structural linguists about word. Is investigated activity word in language, in speech, about that that word is universal unit in the *диапозоне* primary compared with lexeme and morpheme.

Резюме. В статье идёт речь о спорах вокруг слова. Анализируются взглядь представителей традиционных лингвистов и системно-структурных языковедов о слове. Исследуется активность слове в языке, в речи, о том что слово является универсальной единицей в своём диапозоне первичной по сравнению с лексемой и морфемой.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 1-2
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA MILLIY MENTALITETNING BADIIY TALQINI

Hamidova Muhayyoxon Obidovna,
Namangan davlat universiteti
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
filologiya fanlari nomzodi

Badiiy adabiyotda milliy mentalitet masalasi xalqning ma'naviy olami, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek nasri, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida, millat ruhiyati va shaxsning jamiyat bilan munosabatini chuqur badiiy tahlil etishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan Shukur Xolmirzayev nasri o'zining hayotiyligi, obrazlar tizimining boyligi hamda milliy an'ana va qadriyatlarga sodiqligi bilan alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi asarlarida o'zbek xalqiga xos axloqiy me'yorlar, dunyoqarash va turmush tarzi yorqin badiiy ifoda topgan. Mazkur maqolada Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini va uni ifodalashda qo'llangan adabiy vositalar tahlil qilinadi.

Shukur Xolmirzayev ijodi va unda milliy mentalitet masalasi o'zbek adabiyotshunosligida turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, yozuvchining nasriy asarlarida milliy xarakter, xalqona tafakkur, urf-odat va an'analar badiiy talqini adabiyotshunos olimlarning ilmiy ishlarida muhim tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Adabiyotshunoslar Sh.Xolmirzayev nasrining realizmga asoslanganligi, hayotiy voqelikni haqqoniy tasvirlashi hamda oddiy inson taqdirlari orqali milliy ruhni ochib berishini alohida ta'kidlaganlar.

Milliy mentalitet masalasi umumiy nazariy jihatdan ham qator ilmiy manbalarda yoritilgan bo'lib, unda millatning dunyoqarashi, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy ongini ifodalovchi omillar adabiy matn tahlilida muhim mezon sifatida qaraladi. O'zbek adabiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlarda milliylik va badiiylik uyg'unligi, yozuvchi shaxsiyati bilan xalq ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik masalalari keng muhokama qilingan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitetning badiiy talqini masalasi hali ham izchil va kompleks tarzda tadqiq etishni talab etadi.

Mazkur maqolada analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, etnofolkloristik, biografik, struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil davomida Shukur Xolmirzayevning «Arpali qishlog'ida», «Qadimda bo'lgan ekan», «Ko'k dengiz» hikoyalari va «So'nggi bekat» romani tahlil qilindi. Ushbu asarlarda milliy mentalitet, avvalo, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, shuningdek, axloqiy tan-

lovlar orqali badiiy ifodasini topgani aniqlandi. Yozuvchi qahramonlarini sun'iy ideallashtirmasdan, ularni hayotiy ziddiyatlar ichida tasvirlab, milliy xarakterga xos murakkablik va ichki qarama-qarshiliklarni ochib beradi.

Asarlardagi qahramonlar obrazida o'zbek xalqiga xos sabr-toqat, kamtarlik, or-nomus, kattaga hurmat, oila va mahalla qadriyatlariga sadoqat kabi mental xususiyatlar yetakchi o'rin egallaydi. Shu bilan birga, yozuvchi zamon va jamiyat ta'sirida yuzaga kelayotgan ma'naviy inqiroz, qadriyatlar o'zgarishi, shaxs va muhit o'rtasidagi ziddiyatlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Bu holatlar milliy mentalitetning statik emas, balki tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boruvchi hodisa ekanini ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida Shukur Xolmirzayevning badiiy uslubi milliy mentalitetni ifodalashda muhim vosita ekani aniqlandi. Yozuvchining sodda va ravon tili, xalqona iboralar, maqol va matallardan o'rinli foydalanishi, dialoglarning tabiiyligi milliy ruhni kuchaytiradi. Ayniqsa, kundalik hayot detallarining badiiy yuklama kasb etishi orqali umumxalq ruhiyati va tafakkuri ifodalanadi. Tabiat tasvirlari ham qahramonlarning ichki kechinmalari bilan uyg'un holda berilib, milliy dunyoqarashni yanada teranroq ochishga xizmat qiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Shukur Xolmirzayev nasrida milliy mentalitet nafaqat mazmuniy jihatdan, balki badiiy shakl, til va kompozitsiya orqali ham izchil ifodalangan. Yozuvchi asarlarida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi: milliy qadriyatlar asosida shakllangan qahramonlar taqdiri orqali butun insoniyat uchun dolzarb bo'lgan ma'naviy muammolar yoritiladi. Shu bois Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek nasrida milliy mentalitetning badiiy talqinini mukammal aks ettirgan muhim adabiy hodisa sifatida ilmiy xulosaga kelishga asos bo'ladi.

Sh.Xolmirzyaevning «Arpali qishlog'ida» (1973) hikoyasida xalq jonli tili va milliy ohang kuchli. Qahramonlar fikrlash tarzi ham tabiiy-o'zbeklikka, milliylikka xos. Har bir detal va harakat aniq maqsadga bo'ysundirilgan. Hikoya qahramonlari Bodomgul bilan Abdurasul yoshlikdan birga o'sgan maktabdosh bo'lishsa-da, ular bir-biri bilan samimiy gaplasha olmaydilar. Ularning «beshikkerti» qilingani har ikkisining o'rtasida ko'rinmas to'siq bo'lgan. Bodomgul Abdurasuldan nari yurishga harakat qiladi, chunki u Eshquvvatni sevadi.

Hikoyada ibratli urf-odatlarimiz qalbidan joy olgan ota qizining baxtiga zomin bo'lib qolishdan qanchalar cho'chiydi. Ota o'zbekning eskirayotgan, ba'zan mana shunday noxushlik keltiradigan bir udumi sabab qizining baxti oldida ham, suyak-suyagiga singib ketgan «Labzidan qaytgan qavmidan qaytgan bo'ladi...» deguvchi o'zbekona aqida qarshisida ham andishada qoladi. Qizining ra'yiga boqmay, «Bizning labzimiz bor qizim... Meni sharmanda qilib qo'yasan. Bir umr ulardan qutulmaymiz keyin...» deya qanchalar qattiq turmasin, pirovardida, baribir qizini ko'nglidagi odamga uzatadi. Bu jo'mardlik, bu xislatlardan sharq kishisiga xos fazilat gupurib turibdi.

Hikoya beixtiyor yodimizga Abdulla Qahhorning «Qizlar» deb nomlangan asarini tushiradi. Asar bosh qahramoni «zamonga moslashib olgan Nurmatjon hayot haqida, odamlar to'g'risida hamon eski tasavvurlar bilan yashaydi, to'g'rirog'i, u tasavvurlardan voz kechib, hayotga sog'lom fikr bilan nazar tashlashni, uyqudan uyg'onishni istamaydi. U bir zamonlar otasiga nazr qilingan Karomatxon va Adolatxonni hamon o'ziniki hisoblab, ularga uylanish rejalarini tuzadi. Holbuki, qizlar buni uxlab, tushida ham ko'rmagan. Ularning biri-zavod direktori, ikkinchisi-injener. Yangi hayot Nurmatjonning o'zini ham, da'volarini ham kulgili ahvolga solib qo'ygan»[1]. Abdurasul ham «Qizlar hikoyasining qahramoniga o'xshab eskicha fikr yuritadi, kichiklikda kimga «beshikkerti» qilingan bo'lsa, demak qiz faqat o'shaniki deb kalta o'ylaydi. Vaholanki, hayotda hamma narsa kun sayin o'sib-o'zgaradi, yangilanadi. O'zini oqlayotgan eskicha urf-odatlarni xalq hyech qachon yo'qotmaydi va ularni hozirgacha saqlab qoladi, faqat ularning zarar keltiradiganigina unutilyapti. Abdurasul esa hayotda sevgi-muhabbat, qalb amriga emas, eskicha an'ana-udumga ishonib taqdirini osonlikcha hal qilmoqchi bo'ladi[2].

Zamonaviy mazmundagi bu hikoyada milliy folklorning romantik ohangi sezilib turadi. Muallif mavzuni an'anaviy shaklda talqin etayotanini ta'kidlab turadi. Bu tagma'no kitobxonni hikoya xotimasini emotsional idrok etishga tayyorlab boradi. Bodomgul obrazining milliyligi an'naviylik va zamonaviylikning uyg'unligida ko'rinadi.

Shukur Xolmirzayevni insonning jamiyatdagi o'rni, el-yurt oldidagi mas'uliyati masalalari ko'proq bezovta qiladi. 70-yillarda yaratilgan «Hayot abadiy», «Qariya», «Olam tortilish qonuni», «Og'ir tosh ko'chsa», «Keksa g'ijjakchi», «Kechagi kun kecha» singari hikoyalar ko'p jihatdan mukammal, mag'zi to'q, shakli but asarlar ekani ayon bo'ladi.

Shukur Xolmirzayevning 70-80-yillari yozgan hikoyalari qahramonlari dunyoqarashlaridagi o'zgar-

[1] Шарафиддинов О. Абдулла Қаххор. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – Б. 120.

[2] Тавалдиева Г.Шукур Холмирзаев ҳикояларида воқеликни бадиий идрок этиш принциплари: Филол.фан.номз....дисс.-Тошкент, 2001. – Б.18.

ishlarning yangi jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qahramonlarning aksari (masalan, «Ot egasi»dagi Inod, «Og‘ir tosh ko‘chsa...»dagi yeson) hayotiy jarayonlarni qanday bo‘lsa shundayligicha emas, qayta tahlildan o‘tkazib, mustaqil baholay oladigan; milliy, ma’naviy, madaniy qadriyatlarga yangicha nazar tashlovchi; ilg‘or tafakkur tufayli jamiyatning ayrim luzumlariga dadil tanqidiy munosabat bildiruvchi kishilardir.

Jamiyat, vaziyat yoxud sharoit unga ma’qul deb tiqishtirayotgan tartibot yoki yashash me’yorini rad etish, yoki hyech bo‘lmaganda, o‘ziga vujudidagi ikkinchi «men»ning noroziligini ma’lum qilish yozuvchi qahramonlarining yetakchi belgilaridir. XX asrda Cho‘lpon va Abdulla Qahhorning ayrim asarlarini hisobga olmaganda, o‘zbek hikoyachiligida uzoq vaqt tashviqiylik hukm surdi. 60-yillardan, sekin-sekin uning o‘rnini badiiy tahlil egallay boshladi.

Bu jarayonda Sh.Xolmirzayev personajlari o‘zbek hikoyachiligida qahramonlarning, ayniqsa, o‘z-o‘zidan qoniqmaslik va o‘zini chuqurroq anglashga intilish ruhini mustahkamladi. Shu ma’noda adib o‘z qahramonlarining ijtimoiy turmushdagi harakatlarini emas, balki ularning aql-zakovatini tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Adib tushunchasiga ko‘ra, aql-zakovat qahramonning mehvaridir. Shu sababdan yozuvchini qahramon bajarayotgan ishlar, asarga asos qilib olingan voqyea natijasidan ko‘ra, shu voqyea va natijaga munosabatdagi qahramon aql-zakovatining ochilish jarayonlari ko‘proq qiziqtiradi. Bunday hollarda Sh.Xolmirzayevning ayrim hikoyalari va undagi qahramonlar xarakteri nainki kitobxon yoki tanqidchi qalbida, ba’zan, hatto, asar muallifining o‘zida ham aniq qaror topmagan bahsli munosabat uyg‘otgandek tasavvur qoldiradi. Xususan, «Qadimda bo‘lgan ekan» hikoyasi haqida shu fikrni aytish mumkin. Shofyor yigit O‘sar qalbidagi cheksiz ikkilanishlar – o‘z qalbini taftish etish, ichki dunyodagi beqarorlik, qadimu hozir, o‘ziyu xotiniga qarashlarining ayqash-uyqash bo‘lib ketuvi natijasida momosini olis joylarga eltib qoldirilishi va keyin vujudidan o‘tgan ruhiy azoblar jarayoni ana shunday – qahramoning o‘z-o‘zini anglamoq yo‘lidagi urinishlaridir.

Shukur Xolmirzayev «Qadamda bo‘lgan ekan» hikoyasida adabiyotimizda birinchilardan bo‘lib jamiyatda yuz berayotgan ana shu so‘nggi o‘zgarishlarning, qiyinchiliklarning inson qalbiga ko‘rsatayotgan ta’sirini badiiy gavdalantirdi[1].

Ahvol shu darajaga yetdiki, hatto asriy an’analar, urf-odatlar ancha mustahkam turuvchi va udumlari osonlik bilan o‘zgarmovchi qishloq kishilari tabiatida ham o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Bu oila, muhit, sharoitdagi yo‘qchilik, nochorlik, asabiy holatlarning ta’siri tufaylidir. «Qadimda bo‘lgan ekan» hikoyasida tsvirlanishicha, bu o‘zgarishlarning ayrimlari yaqin-yaqin davrlargacha millat tabiatida ko‘zga ko‘rinmagan.

Momo nabirasini o‘zi voyaga yetkazgan. Yemay yedirgan, ichmay ichirgan, uylantigan, uy-joyli qilgan. Zamona og‘irliklari-yu, ro‘zg‘or tebratish qiyinchiligi, yo‘qchilik, kelinning qaychi tili-yu, uydagi gapning ko‘chaga to‘g‘ri kedlmasligi bois oilada kunda g‘ish-g‘isha. Buning ustiga momo ham keksayib, esi kirar-chiqar, almoyi-aljoyi bo‘lib qolgan. Bu ham yetmagandek, badbo‘y kasal iskanjasiga olgan. Xullas, oilada, uyda asabiylik, ahvol mushkul, osmon uzoq, yer qattiq.

O‘sar nechog‘li sabr etmasin, qiyinchilikka dosh bermasin, vaziyat, sharoit uning tabiatini o‘zgarish sari burdi. Ko‘zining oqu qorasi bo‘lgan momo o‘ziga, ro‘zg‘origa, xotiniga ortiqchalik qilayotgandek tuyuldi. Natijada, shayton yo‘ldan urib, necha asrlardan buyon davom etib kelayotgan mustahkam milliy udumga darz ketadi. Kunlardan birida O‘sar o‘z momosini kimsasiz, o‘zi qaytolmaydigan joylarga tashlab keladi. Bu, aslida, turmush uqubatlariga yigit asabining dosh berolmay qolishi edi.

«Momo!-dedi nevara ovozi xirillab va tuyqus yig‘lamoqdan beri bo‘lib baqirdi: -Kenjangiz chaqiryapti ekan sizni! Kenjaboy!.. Bittasi aytib ketdi...»[2] O‘sar momosini shu tarzda kiyintirib uydan olib ketadi.

Biroq yozuvchi asarini shu bilan tugatmaydi. Chunki uning muddaosi zamon og‘irligi, qahramondagi ruhiy o‘zgarishni ko‘rsatishgina emas, inson qalbida, millat tomirida insonga insoniy mehrning hyech qachon so‘nmasligini ko‘rsatishda.

Momoni uydan olib chiqib ketish jarayonidagi dialog ham kitobxonn o‘ylantirmay qolmaydi. Fikrimizni asardan olingan quyidagi dialog misolida davom ettirishni maqsadga muvofiq deb bildik:

«-Anavi yerdan ushlang. Ushlang deyapman... Hye, enahardi momosi! – O‘zi o‘ng qo‘li bilan kampirning dastpanjasini olib, g‘aladonning tutqichiga qo‘ydi.

-Ha, mundaychiksiyam bor ekan-da... Aylanay mehribonimdan... Sizlarni halol yedirdim, halol kiydirdim. Xudoga shukr. Eshitgansan, bobongdi «virak narot» deb otishganda, bizdan yetti chaqirim nariga qochib edi qarindoshlar ham. Ha, «xalq dushmani» ning bevasi edim»[3].

[1] Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б. ва бошқ.XX аср ўзбек адабиёти тарихи: Ун-тлар ва пед.ин-тлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик.- Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б. 505.

[2] Xolmirzayev.Sh.Tabassum: hikoyalar. - Toshkent: Ziyo nashr, 2023. – B. 241.

[3] Xolmirzayev.Sh. Tabassum: hikoyalar. – Toshkent: Ziyo nashr, 2023. – B. 242.

Asar qahramoni momo ana shunday «xalq dushmani»ning bevasi bo‘lib, hamma yaqinlari ulardan qochib, yordam qo‘lini cho‘zmasa-da, o‘zni yo‘qotmaydi, farzandini katta qiladi. Hattoki, aynan hozirgi holatida, ya’ni keksayib, qo‘lidan ish kelmaydigan, birovlarning yordamiga muhtoj bo‘lib qolganida uni uydan olib ketayotgan nabirasi O‘sarni ham o‘zi katta qilgan. «Mashina katta ko‘chagatushgach, to‘g‘riga yo‘l oldi. O‘sar tezlikni oshirib va har qadamda signal berib, go‘yoki o‘zining qandaydir «Borsa qaytmas» ga borayotganidan o‘tkinchilarni ogoh etayotgan kabi ko‘zi ilg‘agan tanish-bilishlarga beixtiyor bosh irg‘ab, qishloqdan chiqa boshladi»[1].

Kitobxon O‘carga nisbatan ham, uning xotiniga nisbatan ham qilmishlari uchun nafratini yashirolmaydi. Ayni vaqtda ularni shu ahvolga tushishga undagan sharoitni o‘zi sezmagan ravishda dildan tahlil eta boshlaydi va baribir, momoga bunday munosabat borib turgan imkonsizlikdir, degan to‘g‘ri xulosaga keladi.

O‘sar va uning xotini achchiq xatoni anglab yetadilar: momoni qaytarib olib kelish uchun yo‘lga tushadilar.

«Bukri tol tomiriga endi Hojar o‘tirib qoldi. O‘sar yo‘lning u betiga o‘tdi. Keyin to‘g‘ridagi soylik tomonga chopib ketdi. Buloq suvi toshchalar oralab oqar, qandaydir o‘troq qushchalar chiy-chiylashar edi.

O‘sar dodlab, yana orqaga qarab chopdi. Tut ostidan o‘tib, yana toshlar ustiga chiqdi.

-Momoo...- dedi endi ovozi bo‘g‘ilib. – Axir... – Shunda kampirning boya (O‘sar ketayotganda) kulgani, «Qadimda bo‘lgan ekan-da...» deganini eslab: «Tag‘in birov-yarimga aljigan bo‘lsa...» deb o‘yladi. Va o‘zini-O‘sarniyam tanimay qolishi yodiga tushib, holsiz shivirladi: -Obketishibdi»[2].

Yozuvchi shu nuqtada hikoyani kulminatsiyasiga olib chiqadi. Momo yo‘q. Uni noma’lum, mehrparvar kishilar olib ketgan. Endi bu vijdon azobiga chidab bo‘ladimi? Adib shu tariqa qilmishlari uchun qahramonlarini mana shunday abadiy azobga mustahkam etadi.

Adib asar nihoyasida katta ma’noni singdiradi. Momoni boshqa odamlar o‘z panohlariga olib ketadilar. Asar g‘oyasidagi asosiy mazmun yuki muayyan ma’noda mana shu kishilarda hamdir deb tushunmoq kerak. Hikoyada deyarli ko‘rsatilmagan, ishtirok etmagan mana shunday kishilar bor ekan, hayot so‘nmaydi, mehr o‘lmaydi, millat o‘zini o‘zi xor qilmaydi.

90-yillarga kelib yozuvchi hikoyalarida zamon ruhi yanada teran va yorqin namoyon bo‘la boshladi.

«Ko‘k dengiz» hikoyasi nainki Sh.Xolmirzayev, balki, umuman, XX asr oxirlaridagi o‘zbek hikoyachiligining yutuqlaridan biridir.

Oltoyda chor-nochorlikda yashagan Ivan Ivanovich O‘zbekistonga mehmonga chaqirilgan. Yozuvchi darhol o‘quvchi e’tiborini qahramon sajiyasiga tortadi, ajab o‘z vatanida odam yashashi qiyin, isqirt, badbo‘y yerto‘lalarda umr o‘tkazayotgan Ivan Ivanovich O‘zbekistonga kelgach, mezbonlar unga durustgina xonadonlarni taklif qilishlariga qaramay, tarki odat amri mahol deganlaridek, devonavishlikni davom ettiradi, ichishini qo‘ymaydi. Adib qahramonning bu tabiatini boshda istehzo bilan tasvirlayotgandek... Aslida esa, bunday emas. Aslida adib kitobxonni qahramonning bu ahvolga tushishi sabablarining chuqur ildizlarini ochishga tayyorlamoqda.

Bu odam bir vaqtlar kattagina olim bo‘lgan. Oliy o‘quv yurtlarida dars bergan. Oltoyda yerli aholini ruslashtirish avj olganda, bu harakatga qarshi turgani uchun millatchilikda ayblanib, surgun etilgan. Uning darbadarligi shundan so‘ng boshlanadi. Qamoqdan qaytgach, o‘y uyiga propiska qilishmaydi. Tirik turib oilasidan mahrum bo‘ladi. Ichkilikka beriladi. Kechagi olim endi o‘z vataniga sig‘maydi, noilojlikdan yerto‘lalarda yashaydi. Shu ahvolda ham fikri-zikri millat qismatida. Ahvol shu darajaga yetadiki, boshqalar zamonning milliy siyosatini ko‘klarga ko‘tarib, amal pillapoyalaridan o‘rmalayotgan bir paytda bu xo‘rlangan qalb o‘z millatiga mansub bolakaylarni yerto‘laga chaqirib, xalqining o‘tmishi, urf-odatlari, madaniyati haqida rivoyatlar aytib yuradi.

Asar boshida bir piyonistamikan, deb ishtibohga berilgan qahramonga sekin-asta mehr qo‘yganimizni sezmay qolamiz. Bir g‘arib inson hasratida bovujud bir millat qismati namoyon bo‘layotganini idrok eta boshlaymiz.

Hikoya nihoyasida qahramon xarakteri yanada teranroq tasvirlanadi. Ma’lum bo‘lishicha, u O‘zbekistonga faqat uy, ichkilik yoxud xotirjam turmush uchun emas, o‘zining xalqi bilan ildizi bir bo‘lgan bu tomondagi turkiy xalqning ahvolini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish ishtiyoqida, so‘roq belgisiga aylanib qolgan qonli yuragining savollariga javob topish ilinjida kelgan ekan. Bu yerda ham o‘z yurtidagi kabi ahvolni ko‘rgach, ko‘k dengizdek toza va mahobatli dunyoning zaharlanayotgan ko‘lga aylanib borayotganini anglagach, bu yurtga sig‘may qoladi, darveshona tentirab, bosh olib ketadi.

Sh.Xolmirzayev «Ko‘k dengiz» hikoyasiga faqat o‘zbek xalqi emas, Sovet Ittifoqi deb atalgan sho‘rolar mamlakatidagi ko‘pdan-ko‘p xalqlarning XX asr nihoyasidagi milliy dardini singdira oldi.

Adibning o‘z vaqtida katta bahs-munozaralarga

[1] Ko‘rsatilgan manba. – B. 243.
[2] Ko‘rsatilgan manba. – B. 250.

sabab bo‘lgan romani «So‘ngg bekat»dir.

«So‘nggi bekat» da o‘zligini izlayotgan vijdoni uyg‘oq, qalbi ochiq ziyolilar obrazi bir ansambldek jamlangan. Ular biz kimmiz, kimlarning avlodimiz, deya qiziqa boshlaydi. O‘zbek urug‘lari, yurtning qadim tarixi va cho‘ng madaniyati suhbatlarining bosh mavzusi bo‘ladi. Asarda jamiyatning ma’naviy-ijtimoiy hayoti haqqoniy aks ettiriladi. Adib dastlabki romani bilan o‘z davridagi adabiy talab va o‘lchovlarni, andaza va me’yorlarni ichdan inkor etadi. Adabiy asarning publitsistikadan, jurnalistik tadqiqotdan farqi borligini, yozuvchi inson qalbini tadqiq etishi lozimligini isbotlamoqchi bo‘ladi. Biz bu o‘rinda bekorga ichdan inkor etadi, pinhona ta’kidlashga urinadi, deyayotganimiz yo‘q. Sababi, roman yozilib e’lon qilingan davr sotsialistik realizmning hukmfarmo davri edi. Bu yo‘lga shubha bilan qarash aslo mumkin emas edi.

Siyosiylashgan nasrni milliy-adabiy o‘zanga solishga urinish aynan Shukur Xolmirzayev ijodida yaqqol seziladi.

Asar qahramonlari asosan yoshlar. Chunki roman yozilgan vaqtda muallifning o‘zi o‘ttiz beshga to‘lib-to‘lmagan edi. U asarga ongli ravishda tengdoshlari hayotini tanlagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, roman jo‘shqin bir kayfiyatda, ehtiros bilan yozilganligi yaqqol ko‘rinib turadi va o‘quvchida ham mana shunday kayfiyat uyg‘otadi. Roman juda oddiy va sodda usulda bitilgan. Tili ravon va shirador.

Milliy o‘zlikni yo‘qotishga, shu orqali xalqlarni qullikda ushlab turishga qasd qilgan mustamlakachilar birinchi navbatda millatni millat qilib turadigan tayanchlarini – urf-odat va an’analarini, e’tiqodini, tarixini yo‘qotishdan boshlagan. Millatni g‘orat qilishning ana shu uslubini adib nihoyatda mahorat bilan tasvirlab, xalqimizning o‘ziga xosligi, qadimiyligining ramzi bo‘lgan Navro‘zni umr yo‘lining so‘nggi bekati hisoblanmish qabristonga eltib nishonlaydi. Romandagi ziyolilar ansamblining yana bir vakili Sabohatning xalq og‘zaki ijodi, xususan, tog‘li xalq marosimi hisoblangan giryaning yo‘qolib ketayotganidan taassufi asarga shunchaki ta’sirchan sahnalar qo‘shish maqsadi bilan emas, yozuvchining asl muddaosi – xalqning uyg‘onishi, o‘zligini tanishi yo‘lidagi vositalar sifatida qalamga olingan. Asarda bu kabi ramziylikka har qadamda duch kelamiz.

Sabohat – jonini vatan va xalq yo‘lida, erk-istiqlol yo‘lida fido qilgan o‘zbek ziyolilarining umumlashma obrazi. U orzu-umidlari, ideallari bilan o‘z davridan o‘zib ketgan inson. Bu obrazni ko‘rib-kuzatsangiz, sinchiklab qarasangiz, XX asr boshlaridagi ma’rifatparvar ziyolilar ko‘z oldingizga kelaveradi. Uning o‘limi yozuvchining istagi bilan emas, balki mantiq bilan amalga oshadi. Chunki u sho‘ro siyosati istamagan shaxs. Bunday «zararli» mafkura bilan qurollangan inson jamiyatda bo‘lishi mumkin emas. Yozuvchi Sabohatning o‘limi orqali ko‘p masalalarga ishora qiladi, tarixga urg‘u beradi. Chunki bunday g‘oyalar bilan yashagan, kurashgan ziyolilar asr boshida mustabid tuzum tomonidan garchi ommaviy qirg‘in qilingan esada, ularning maqsad-g‘yalari, qarashlari o‘lgan emas. Shuning uchun ham Muniraga vasiyat qiladi, ishining davom etishini istadi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev nasri o‘zbek milliy mentalitetining badiiy talqinini chuqur va hayotiy tarzda aks ettirishi bilan ajralib turadi; yozuvchi qahramonlar xarakteri, kundalik turmush manzaralari, xalqona til va badiiy detallar orqali milliy dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar hamda jamiyat va shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ishonarli ifodalagan. Tahlil natijalari Sh.Xolmirzayev ijodini milliy mentalitet masalasida tizimli va qiyosiy jihatdan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi, shu bois kelgusida yozuvchining nasriy asarlarini boshqa o‘zbek adiblari ijodi bilan solishtirma tahlil qilish, shuningdek, uning asarlarini zamonaviy adabiy-nazariy yondashuvlar asosida qayta talqin etish ilmiy jihatdan muhim va samarali bo‘lishi mumkin.

Resume. The article analyzes the artistic interpretation of national mentality in the prose of Shukur Kholmirzaev. It examines how the writer reflects the features of Uzbek national consciousness, traditions, and moral values through a system of images, character portrayals, narrative language, and everyday details. Special attention is paid to the relationship between the individual character of the protagonists and the collective experience of the people, as well as to the role of realistic depiction of daily life in revealing the national spirit.

Резюме. В статье анализируется художественная интерпретация национального менталитета в прозе Шукура Холмирзаева. Рассматривается, каким образом писатель через систему образов, характеры персонажей, язык повествования и бытовые детали отражает особенности узбекского национального самосознания, традиций и нравственных ценностей. Особое внимание уделяется взаимосвязи индивидуального характера героя с коллективным опытом народа, а также роли реалистического изображения повседневной жизни в раскрытии национального духа.